

## MUSTAQILLIK YILLARIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Ismailova Shaxnoza Abdurashidovna

O'zbekiston, Termiz

TerDU magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlar, muammolar va yechimlar haqida fikrlar bildirilgan. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, uzluksiz ta'lim, boshlang'ich, bola, sog'lom va rivojlangan, shaxs, o'qish, faoliyat, tashkilot.

**Annotation.** This article provides insights into reforms, challenges, and solutions in the preschool education system. Preschool education is the primary part of lifelong learning. It stimulates the child's desire to learn, prepares him for systematic learning, ensuring that the child is formed into a healthy and developed person. Therefore, the further strengthening of this system, the creation of favorable conditions in preschool education, the wide involvement of preschool children in them play an important role in the formation of our children as harmonious and mature individuals.

**Keywords:** preschool, continuing education, primary, child, healthy and developed, person, study, activity, institution.

**Аннотация.** Это статья дает представление о реформах, проблемах и решениях в системе дошкольного образования. Дошкольное образование - это основная часть непрерывного обучения. Он стимулирует желание ребенка учиться, подготавливает его к систематическому обучению, гарантируя, что ребенок станет здоровым и развитым человеком. Поэтому дальнейшее укрепление этой системы, создание всесторонних благоприятных условий в дошкольном образовании, широкое вовлечение в него дошкольников играют важную роль в формировании наших детей как гармоничных и зрелых личностей.

**Ключевые слова:** дошкольное учреждение, непрерывное образование, начальное, ребенок, здоровый и развитый, человек, учеба, деятельность, учреждение.

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar natijasida inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehri uyg'onadi, umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Bunda, eng avvalo, oila asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim tashkilotining hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylangan.

Mamlakatimizda milliy genofondni mustahkamlash, yosh avlodni yetuk kadrlar etib tarbiyalash masalalariga doimiy e'tibor qaratib kelingan, jumladan, 2017-yil 16 -avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda

ta'lim tizimini rivojlantirishning ko'plab yo'nalishlari belgilab berildi. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur tashkilotlarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-sentabrdagi

“Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni

hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi. Shuningdek, 107 ta maktabgacha ta’lim muassasasi rekonstruksiya qilindi va qurildi, 195 ta bog‘cha kapital ta’mirlandi.

Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi katta o‘rni va ahamiyatini e’tiborga olib, Maktabgacha ta’lim vazirligini tashkil etdik. Biz ushbu sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashimiz, jumladan, yaqin 3-4 yilda barcha hududlarda minglab yangi bog‘chalar qurishimiz, ta’lim-tarbiya sifati va darajasini yangi bosqichga ko‘tarishimiz lozim deb takidlaydi muhtaram prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev<sup>1</sup>.

Albatta, mazkur masalaga e’tibor kecha yoki bugun paydo bo‘lib qolgani yo‘q. Ortga nazar tashlaydigan bo‘lsak, o‘tgan 28 yillik mustaqillik davrida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda ta’limni tubdan isloh qilishning muhim bosqichlari amalga oshirilib, mohiyatan hech qaysi bir davlatda mavjud bo‘lmagan uzluksiz ta’lim tizimi shakllantirildi. Ya’ni yosh avlodning maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan to oliy ta’limgacha bo‘lgan uzluksiz bilim olishlari, kasb o‘rganishi uchun shart-sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

“Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ta’lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to‘g‘ri keladi: ‘ta’lim-tarbiya – biz uchun hayot-mamot masalasidir’, - deb doimo ta’kidlaydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog‘lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanadi.

Prezidentimiz tomonidan mazkur sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e’tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo‘lmay ulg‘ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlashdek ezgu maqsad mujassam.

Jumladan, davlatimiz rahbarining qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish dasturida keng ko‘lamli strategik maqsadlar, muhim vazifalar belgilangani bilan ahamiyatlidir.

Xususan, hujjatda bugungi kundagi hayotiy talab va ehtiyojlar, sohada yechimini kutayotgan masalalar hamda hali ishga solinmagan imkoniyatlar hisobga olinganligi barchamizni quvontiradi.

Ayniqsa, kelgusi besh yillikda 2200 ta maktabgacha ta’lim tashkilotining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jumladan, qishloq aholi punktlarida yangi maktabgacha ta’lim tashkilotlarini qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, uskunalar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar, multimedia resurslari bilan ta’minlash hamda ushbu maqsadlar uchun jami 2,2 trillion so‘m mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilayotgani ushbu qaror o‘z ichiga nechog‘lik keng ko‘lamli vazifalarni qamrab olganligini ko‘rsatadi.<sup>2</sup>

Haqiqatdan ham, bugungi kunda qishloq joylarida maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonini keskin oshirish zarurati ko‘rinmoqda. Ayrim qishloq sharoitida yashaydigan yosh onalar uchun bolalar bog‘chasi masalasi hayotiy ehtiyojga aylangan.

Albatta, bu ehtiyoj bejiz emas. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari, birinchidan, maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarning umumiy savodini chiqarish, bolalarda Vatanni sevish, u bilan g‘ururlanish hissini uyg‘otish, Konstitutsiyani o‘rganish, dunyoqarashini kengaytirish imkonini berayotgan bo‘lsa, ikkinchidan, yosh bolali onalarning mehnat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqini ro‘yobga chiqarishga ham xizmat qiladi.

Qolaversa, hududlarda namunaviy loyihalar asosida barpo etilayotgan yangi uy-joy massivlarida yosh oilalar farzandlari uchun bolalar bog‘chalari sonini ko‘paytirish zarurati paydo bo‘lmoqda. Qarorga muvofiq, ayni shu maqsadda joylarda xorijiy tajribadan va mamlakatimizning iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda, namunaviy loyiha asosida 70 va 120 o‘rinli 50 ta zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarini bunyod etish hamda mavjud tashkilotlarning 1167 tasini rekonstruksiya qilish, 983 tasini mukammal ta’mirlash orqali

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2017 yil.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi hisoboti (2019 y.)

kengaytirish nazarda tutilmoqda. Bu orqali bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovini 1,5 barobar oshirishga erishiladi.

Shu bilan birga, qarorga ko'ra qishloq joylardagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar badal to'lovini 30 foizgacha kamaytirish nazarda tutilayotgani kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar uchun yengillik yaratadi<sup>3</sup>.

Albatta, bu boradagi islohotlar samarasini soha talablariga to'liq javob bera oladigan kadrlarsiz tasavvur etish qiyin. Shu sababli tizimdagi pedagog xodimlar mahoratini ilg'or usullar orqali muntazam oshirib borish mexanizmini yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etgan holda, uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini takomillashtirish masalasi ham dolzarb sanaladi.

Ayni shu omillarni inobatga olgan holda qarorda maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish vazifasi belgilangani ayni muddaodir. Chunki, biz o'z oldimizga farzandlarimizning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadini qo'ygan ekanmiz, shubhasiz, pedagog-tarbiyachilarning malakasini oshirish borasidagi mavjud tajribalarni zamonaviy talablar darajasida takomillashtirishimiz zarur. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini psixolog, defektolog kabi mutaxassislar bilan ta'minlash ham bugungi kun talabidir.

Shuning barobarida maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olinmagan bolalarni maktabga tayyorlashda qisqa muddatli tayyorlov guruhlarining roli muhim sanaladi. Ayni shu sababli kelgusida bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli bo'lgan 6100 ta qisqa muddatli guruhni tashkil etish ko'zda tutilmoqda.

Qolaversa, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilinmagan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlarini oshirish ham maqsadga muvofiq sanaladi. Davlatimiz rahbarining mazkur qarorida 3-6 yoshdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash orqali maktab ta'limiga tayyorlashni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgani bolalarni ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlash darajasini yuksaltiradi.

Shu o'rinda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni intellektual, jismoniy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolalarni maktabga sifatli tayyorlash maqsadida turli to'garaklar, ma'naviyat va ekologiya xonalari, kichik muzey, kutubxonalar tashkil etish borasidagi an'analarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiq. Chunki kitobga, san'atga, ilmga, umuman, kelajakda muayyan kasbni egallashga bo'lgan qiziqish bolalarda ayni shu davrda shakllanadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohotlar o'tkazilmoqda, ularning bari bolalar va pedagoglar manfaatlari yo'lida xizmat qilishiga, shuningdek maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan. Tizimda qanday muammolar mavjud va ular qay tariqa hal qilinmoqda? Sohada qanday yangiliklar kuzatilmoqda? Islohotlardan nimalarni kutish mumkin? Maktabgacha ta'lim vazirligi (MTV) tizimida o'zgarishlar talaygina. Ularga imkon qadar batafsil to'xtalib o'tamiz.

Maktabgacha ta'lim tizimida qanday yangiliklar? 2018 yilning sentabr oyidan tatbiq qilinadigan yangi maktabgacha ta'lim dasturi davlat talablariga asoslangan va respublikadagi barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari yangi dastur bilan tanishtirilgan. Davlat va dastur talablarini o'zida jamlagan hujjatlar paketi barcha mintaqalardagi MTTlarga yetkazilgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda birinchi marta hammaga mavzuviy rejalashtirish dasturlari tarqatilgan<sup>4</sup>.

"Ilk qadam" deya nomlangan yangi dasturning asosiy tamoyili - ta'lim jarayoniga qo'shilayotgan kichik yoshli bolalarning ilk qadamlari. "Umuman olganda, davlat talablarida kichik va maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni besh yo'nalishda rivojlantirish kerakligi ko'rsatilgan. Bu besh yo'nalishni rivojlantirib, bola 4 kompetensiyaga ega bo'ladi, ya'ni u 1-sinfga chiqishga motivatsiya oladi", - deydi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vaziri Agrippina Shin.

<sup>3</sup> Maktabgacha ta'lim vazirligi (2020 y.). Manba quyidagi manzilda mavjud: <http://old.mdo.uz/ru/>

<sup>4</sup> *Lola Rahmonboyeva* "Maktabgacha ta'lim: Muammolar va ularning yechimlari" 2017-yil



Yangi dasturda barcha narsaning asosi ijtimoiy yondashuvdir, ya'ni diqqat markazida bola va uning manfaatlari. Pedagog ota-ona, pedagogik tarkib, bolaning o'zi va albatta, jamiyat hamda davlat kabi ijtimoiy hamkorlar bilan bir ijtimoiy muhitni tashkil qiladi.

Dastur asosida bilim olish jarayonini o'yinlar orqali rivojlantirish yotadi. Bolalarda ilm olish, ijod, ijtimoiy yo'nalish kabi tushunchalar rivojlanadi, sog'lom hayot tarzi tarbiyalanadi va ular ijtimoiy muhitda o'zlarini qanday tutish kerakligini tushuna boshlashadi.

Guruhlardagi bolalar soni. Shu yildan boshlab O'zbekistonda bir guruhda 25 nafargacha bola bo'lishi me'yoriy ko'rsatkich sifatida belgilandi, ayniqsa sinov tariqasida faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida. Ilgari esa bir guruhdagi bolalar soni 30 dan ziyod, ba'zidan esa 40 tagacha yetar edi, bu esa bolalarning sifatli maktabgacha ta'limga ega bo'lishida muayyan muammolarni keltirib chiqarardi.

"Prezident topshirig'iga ko'ra, 4 hududda 6 yoshli bolalarni majburiy maktabgacha ta'lim bilan qamrab oluvchi sinov loyihasi yo'lga qo'yildi, ya'ni ular 3 soatlik bepul ta'limga jalb qilinadi, bu 15 soatlik haftalik dastur degani. Bu guruhlarda bolalar soni 25 kishidan oshmasligi kerak. Shu tariqa bizda ilmiy, tarbiyaviy, ta'limiy muhit shakllantiriladi. O'z faoliyatimizga endigina kirishganimizda bolalarni maktabgacha ta'lim jarayoniga qamrab olish 27 foizdan iborat edi, bugunga kelib bu ko'rsatkich 34 foizni tashkil qilmoqda. MTV o'z oldiga katta vazifalarni qo'ymoqda va shu tariqa barcha bolalarni maktabgacha ta'lim tizimiga qamrab olish hamda bir guruhda 25 nafar bola qoidasiga amal qilish", - deya izohlaydi vazir.

Shuningdek, guruhlarga faqat 25 nafargacha kishini qabul qilish imkonini beruvchi EMIS elektron tizimi ham yo'lga qo'yildi. 2021-yilga borib mamlakatdagi barcha MTT guruhlarida bolalar soni shunday bo'ladi deb taxmin qilingan edi.

Yangi qurilish, rekonstruksiya, davlat va xususiy sektor hamkorligi. Albatta, hozircha bolalar bog'chalari yetishmasligi muammosi bor. MTT binolarini qurish, rekonstruksiya qilish borasida katta sa'y-harakatlar boshlangan. 2019-yilning investitsion dasturidan kapital ta'mirlov umuman olib tashlangan. Zero MTV faqat yangi qurilish va rekonstruksiya barcha bolalarni MTTlarga qamrab olish imkonini beradi, deb hisoblaydi. Prezidentning 3651-sonli qaroriga muvofiq, O'zbekistonda birinchi marta MTV tomonidan Davlat-xususiy sektor hamkorligi (DXSH)ga doir qoidalar ishlab chiqildi. Unda DXShning 10 modeli ko'rsatilgan bo'lib, ishbilarmonlar ularga jalb qilingan. Qarorda bunday ishbilarmonlar uchun imtiyoz va preferensiyalar belgilab berilgan. Bugunga kelib DXSH bo'yicha 741 shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan, 100 mln dollar (taxminan 780 mlrd so'm) ajratilgan<sup>5</sup>.

Kadrlar yetishmovchiligi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridada yaxshi ish haqi to'lanmasa, bu kasbga qiziqish bo'lmaydi, albatta. Shu kunga qadar qanchadan-qancha tajribali, yaxshi kadrlar past ish haqi sabab bu kasbni tark etgan. Shu bois joriy yilning mart oyida Prezidentning pedagoglarning maoshini oshirishga doir qarori chiqqan.

Agrippina Shinning so'zlariga ko'ra, o'tgan 27 yil davomida maktabgacha ta'lim tizimidagi tarbiyachilar va MTT xodimlarining tarif stavkasi biror marta oshirilmagan. 2018-yilning mart oyida Maktabgacha ta'lim vazirligi birinchi marta pedagoglarning bazaviy tarif stavkalarini 30 foizga oshirish taklifi bilan chiqdi. Shu yilning sentabridan oliy ma'lumotga ega pedagoglar uchun bazaviy tarif stavkalari yana 30 foizga oshiriladi. Hozirda maktabgacha ta'limni moddiy rag'batlantirish masalalari ko'rib chiqilmoqda. Masalan, eng yaxshi tarbiyachi, eng yaxshi mudira, eng yaxshi defektolog kabi tanlovlar g'oliblariga 5-15 minimal oklad shaklida rag'batlantirish rejalashtirilmoqda.

Bundan tashqari, 6 yoshli bolalarni ta'limga qamrab olish bo'yicha qaror loyihasi mavjud. MTV 6 yoshli bolalar bilan ishlovchi tarbiyachilarga o'qituvchi maqomini berish taklifi bilan chiqmoqda. Shunday ekan, tabiiyki, ayni damda Xalq ta'limi vazirligida tatbiq etilayotgan imtiyozlar kelgusida ularga ham tegishli bo'lishi ko'zda tutilmoqda.

Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash. Kadrlar barchasini hal qiladi. MTV ilk kunlardan bu muammoga duch keldi. Bugungi kunda MTT soni oshib bormoqda, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari ham shular jumlasidandir. Yanvar oyida ularning soni 200 dan ortiq bo'lgan bo'lsa, hozirga kelib bu ko'rsatkich 600 ga

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 2016 y

yaqinni tashkil qilmoqda. Raqamlar kun sayin oshib bormoqda, chunki xususiy MTTlar va Davlat-xususiy sektori hamkorligi asosidagi MTTlar ochilmoqda. Tabiiyki, kadrlarga bo'lgan talab ham katta.

"Kadrlar bo'lmasa, maktabgacha ta'lim sifati haqida gapirishga hojat ham yo'q. Biz kadrlarni qayta tayyorlash masalasini ishlab chiqdik. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ega bo'lmagan pedagoglar juda ko'p. Bugungi kunda akademik litsey va kollejlardagi pedagoglarga ish kamaydi, ular pedagogik tajribaga ega bo'lgan, lekin bazaviy maktabgacha ta'limga oid bilimlarga ega bo'lmagan kishilardir. Bundaylar uchun pedagogika universitetlari qoshida 4 oylik qayta tayyorlash kurslari ochildi. Bugunga kelib 9400 dan ziyod pedagog ularni tugallab, MTV tizimiga qamrab olindi. Bundan tashqari, biz yangi moslashuvchan modelni ishlab chiqdik, ya'ni pedagogik ma'lumotga ega bo'lmagan kishilar uchun 6 oylik kurslar tashkil etildi, ularning soni 1500 nafar atrofida", - deydi maktabgacha ta'lim vaziri.

Statistika. Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimiga 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan 2,5 mln bola qamrab olingan. Respublikadagi MTTlar soni esa 6154. Ulardan 5586 tasi davlatga qarashli, 568 tasi nodavlat ta'lim tashkilotidir. Bugunga kelib 859 141 nafar bola maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan, bu umumiy hisobning 34 foizi demakdir. Jami 1 mln 600 dan ziyod bola maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan.

2030-yilga borib 85 foiz bola respublika MTTlariga qamrab olinishi maqsad qilinmoqda<sup>6</sup>.

Yangi modellar. Maktabgacha ta'lim vazirligi maqsadi - barcha bolalarni teng asosli va yuqori sifatli maktabgacha ta'lim tizimiga qamrab olish. O'zbekistonda uzoq qishloq punktlari bor, u yerda bolalar bog'chalari yo'q, shunday ekan, maktabgacha ta'lim olishning imkoni yo'q. Qamrovni ta'minlash uchun MTV tomonidan o'qitishning muqobil shakli - oilaviy MTTlar faoliyatini yo'lga qo'yishga doir qaror ishlab chiqildi. "Fikrimizcha, aynan qishloq joylarda ular o'zini oqlaydi. Ushbu qarorda oilaviy MTT daromad olish huquqiga ega ekanligi qayd etilgan. Bundan tashqari, oliy ma'lumotga ega bo'la turib, muayyan sabablarga ko'ra ishlay olmaydigan ayollar o'z uyida ishchi yollash imkoniga ham ega bo'ladi. Bunda boshqa joylarga nisbatan istisno mavjud, ya'ni uzoq qishloq joylarida hatto o'rta-maxsus ma'lumotga ega ayollar ham oilaviy MTTda faoliyat yuritishi mumkin. Biz ularni shtatga kiritamiz va ular ish haqi bilan ta'minlanadi. Mebel va metodik ta'minotni vazirlik to'liq o'z zimmasiga oladi", - deydi Agrippina Shin.

Qog'ozbozlik. Sir emaski, yaqin kunlarga MTTlardagi pedagoglar ko'plab hujjat turlarini to'ldirishlariga to'g'ri kelgan. Vaqti kelganda, qog'ozbozlik sabab bolalarga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Chunki rahbariyat talabini o'z vaqtida bajarmaslik yaxshilikka olib kelmasligini yaxshi bilishgan. Ko'plab yaxshi kadrlar aynan shu qog'ozbozlik sabab ham sevimli kasblaridan voz kechishgan.

Va nihoyat, 2018-yilning 15-iyulida MTTlarda qog'ozbozlikni qisqartirishga oid qaror qabul qilindi. Unga ko'ra, ilgari pedagoglar 9 ta hujjat turini yuritgan bo'lsa, endi ularning soni 4 tagacha qisqartirildi.

Umid qilamizki, amalga oshirilayotgan barcha islohotlar amalda o'z ifodasini topib, farzandlarimiz sifatli maktabgacha ta'lim, pedagoglar esa munosib ish haqi va imtiyozlar bilan ta'minlanishadi. Toki har bir bola bog'chaga borgisi kelmay ko'z yosh to'kmasin, yaxshi pedagoglar esa o'z kasbini tashlamasin!

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ushbu yo'nalishda oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri bu — mutasaddi tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda OAV bilan hamkorlikda Prezidentimizning yangi qarori mazmun-mohiyatini, bolalarni erta yoshdan rivojlantirish, ularni ijtimoiy moslashtirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining roli va ahamiyatini aholi orasida yanada kengroq targ'ib qilish, chuqur tushuntirishdan iboratdir.

Muxtasar aytganda, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining «Talim to'g'risida»gi Qonuni T.1997 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 2016 y

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2019 y.), «Demografik vaziyat»

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2019 y.), «Demografik vaziyat»
4. «Bolajon» tayanch dasturi. T. 2010 y.
5. O'zbekiston Respublikasi «Maktabgacha talim to'g'risida»gi Nizom. T-2000 y
6. Sh.Sodiqova Maktabgacha pedagogika T. Fan va texnologiya 2012 y
7. F.Qodirova Sh.Toshpolatova M.Azamova. Maktabgacha pedagogika. Toshkent-2013.